

О'ZBEKISTON HUDUDIDA TARQALGAN SUDRALIB YURUVCHILARNING AHAMIYATI

Genjebaev Miyras Sar'senbay o'g'li
Berdanov Dastanbek Turg'anbay o'g'li
Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri
Qoraqalpoq davlat universiteti
Biologiya fani stajyor o'qituvchilari
+998972088898/+998991698395

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sudralib yuruvchilar turli-tumanvayeryuzidakeng tarqalgani uchun tabiatda va inson hayotida suvdavaquruqlikdayashovchilarga nisbatan katta ahamiyatga ega. Sudralib yuruvchilarning deyarli hammasi foydali hisoblanadi. Ko'pchilik kaltakesaklar vailonlarzararkunanda hasharotlar, mollyuskalar va kemiruvchilarni qirib, ularsonini cheklab turadi va qishloq xo'jaligiga katta foyda keltiradi.

Mayda kemiruvchilar bilanoziqlandiganzaharsiz ilonlarni ba'zi joylarda odamlar (Amerika, Janubiy Osiyo, Afrika)uylarida mushuk o'rnida saqlaydi. Ayrim sudralib yuruvchilar zararhamkeltiradi. Masalan: O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi poliz ekinlarigavadonekilgan maysazorlarga ziyon keltiradi. Cho'l toshbaqalari temiryo'lko'tarmalari va sug'orish inshootlarini kovlab tashlaydi. Baliqyetishtiradigan xo'jaliklarda suv ilonlari yosh baliqlarni yeb, ma'lumdarajada ziyon keltiradi. Quruqlikda yashovchi toshbaqalar , ba'zikaltakesaklar va ilonlar odam hamda uy hayvonlariga ayrimyuqumlikasalliklarni tarqatadi, chunki ularda kasallik yuqtiradigan kanalar parazitlikqiladi. MDHda Kavkaz va O'rta Osiyoda zaharli ilonlar insonuchunkattaxavf tug'diradi.

KIRISH

Sudralib yuruvchilar (Reptelia) umurtqalilar sinfi. Qadimgi Sudralibyuruvchilar kotilozavrlar o'rta karbonda stegotsefallardanpaydobo'lgan. Keyinchalik stegotsefallar 2 shoxga ajralgan; ularningbiridan sutemizuvchilar, ikkinchisidan qushlar paydo bo'lgan. Sudralibyuruvchilarpermdan kaynozoy erasi boshlarigacha Yer yo'zi faunasidahukmronlikqilgan. Mezozoyda kengtarqalgan; ular orasida dengizda so'zuvchilarivahavoda uchadiganlari bo'lgan. Eng yirik hayvonlar dinozavrlarqammezozoy davrida yashagan. Mezozoy tugab, kaynazoyningboshlanishiqadimgi Sudralib yuruvchilarning qirilib ketishi, sut emizuvchilarbilanqushlarning keng tarqalishiga to'g'ri kelgan. Hozirgi Sudralibyuruvchilargavdasining uzunligi bir necha sm dan 10 mgacha. Skelet deyarli to'liqsuyaklangan. Oyoqlari boshqa quruqlikda yashovchilar singari 5barmoqlitipda;

ayrim guruhlarda oyoqlar bo'lmaydi. Ko'pchilik Sudralibyuruvchilarqovurg'alari to'sh suyaklari bilan tutashib, ko'krak qafasi hosil qiladi. Sudralib yuruvchilarda birinchi marta ko'krak qafasi orqali nafasolishpaydo bo'ladi. Bosh miyasi sut emizuvchilar va qushlarnikiganisbatankuchsiz rivojlangan. Qon aylanish doirasi 2 ta, yuragi 3kamerali, yurakqorinchasida chala parda to'siq bo'ladi. Faqat timsoxlar yuragi qorinchasito'liq 2 ga bo'lingan, yuragi 4 kamerali. Ayirish organi chanoqbuyrakdaniborat; ko'pchiligida qovuq bor. Gatteriyalardan boshqa barchaSudralibyuruvchilar erkagida kopulyativ organ bor (ilonlar va kaltakesaklarda2tadan). Terisi mugo'z tangachalar yoki qalqon bilan qoplangan(terili suvtoshbaqalarida bo'lmaydi), quruq, ter bezlari bo'lmaydi yoki kambo'ladi.Hozirgi Sudralib yuruvchilarning 8000 ga yaqin turi, O'zbekistonda2turkum(tangachalilar, toshbaqalar)ga mansub 58 turi tarqalgan. Antarktidadantashqari barcha kitalarda uchraydi. Ko'pchilik turlari qurukdikda, timsohlar,bir qancha toshbaqalar va ilonlar chuchuk suvlarda, ayrimtoshbaqalar,ilonlar va timsohlar dengizda yashaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Sudralib yuruvchilar gavdasining shakli amfibiyalarninggavdashakliga nisbatan xilma-xil bo'ladi, bu ularning xilma-xil xarakter usullaribilan bog'lik bo'ladi. Kaltakesaksimonlarning ko'pchilik turlari (kaltakesaklar,xameleonlar, timsohlar) tashqi tomondan dumli amfibiyalargao'xshash.Ilonlar va Oyoqsiz kaltakesaklar ular orasida va suvdayashashgamoslashgan.

Toshbaqalarni butun tanasi kosa ichidajoylashib,dushmanlaridan himoya qilingan. Shunday kilib, reptiliyalar sinfida evolyutsiya yo'llari ularni substratda, suvda,yer ostida va xatto xavoda yashashga xamda yer yo'zidaanchakengtarqalishga olib keldi. Teri qoplagichlari. Ko'p qavatli epidermisning ustki qatlami o'likhujayralardan tashkil topgan shox qatlam hosil qiladi.

Buulikhujayralarqavatining tagida tirik hujayralardan tashkil topgan malpigiyqavati bor.Shox qavat hisobidan qalqonchalar, tangachalar, shoxdonachalar,bo'rtmalar va tirnoqlar hosil bo'ladi. Shox tangachalarning tagida, koriumdaba'zi reptiliyalarda qoplovchi suyaklar hosil bo'ladi. Malpigiy qatlamidavakoriumning ustki qismida pigment hujayralari joylashadi. Teri organizmda suvning parlanib ketishidan yaxshi himoyaqiladi, yanamexanik yallig'lanishdan va kasallik keltirib chiqaruvchi mikroblarniorganizmga kirishidan saqlaydi. Shu bilan birga terini nafasolishdavaparchalanish mahsulotlarini ajratishdagi roli yo'qoladi. Teridabezlardeyarlik yo'q. Kaltakesaklarning sonlarini ichki tomonidasonteshiklaribo'lib, ulardan bahorda ipsimon o'simtalar chiqadi, timsohlar, ilonlarvatoshbaqalarning tumshug'i va kloakasida hidli sekret ishlabchiqaruvchibezlar bor. Bu sekret jinslarni jalb qilish, yashash joylarini belgilashdaishlatiladi. Teri tanaga zich yopishib turadi. Shox qavat tullashyo'li bilanalmashinib turadi.

MUHOQAMA VA NATIJALAR

Toshbaqalarda va ayniqsa timsohlarda jag' oraliq, ustki jag' suyaklarining tanglay o'simtalari va tanglay suyaklari qo'shilib, ikkilamchi tanglayhosilqiladi. Shu sababli xoanalari orqaga, hiqildoq tomonda joylashgan, buularnisuvdan burnini chiqarib nafas olishiga imkon beradi.

Pastki jag' qo'shilish, tishsimon, burchak, burchak usti (suproangulare) va toj (coronare) suyaklaridan tashkil topgan. Giomondibulyaresuyagiamfibiylardagidek uzangi suyagiga aylanadi va o'rta quloqbo'shlig'idajoylashadi; gioid suyagi esa jabra yoylari bilan qo'shilib til osti apparatigaaylanadi.

Chaynash Muskullarining evolyutsiyasi bosh skeletningusti vayontomonidagi suyaklarni qayta qurilishi bilan boradi. Bu evolyutsiyasudralibyuruvchilarni xar xil guruhlarida turlicha yo'l bilan boradi. Anapsidaguruhinihosil qilgan kotilozavrlar va toshbaqalarda birlamchi yaxlit (stegal)boshskeletning qopqog'i saqlangan. Bunday bosh skeletda faqat keyingi o'yiqhosil bo'lgan, bu o'ymaga chaynash muskuli joylashgan. Diapsidalar guruhida (gatteriya, timsoxlar, dinozavrlar) ikkitachakkachuqurchasi hosil bo'ladi (6-rasm) va bular ikkita chakkayoylari bilan chegaralanib turadi, ustki chakka yoyi peshona orti postfrontale–tangachasuyaklaridan, pastki chakka yoyi chakka – kvadrat chakkasuyaklaridaniborat. Kaltakesaklarda bosh skeletning diapsida tipini pastki-chakkayoyiyo'qoladi, qushlarda esa ustki chakka yoyi yo'qolib ketadi, ilonlardaikkalachakka yoylari ham yo'q.

XULOSA

Sudralib yuruvchilarning ko'pgina hayotiy muhimsistemalariamfibiylar bilan solishtirilganda ularda ancha takomillashgani ko'zgatashlanadi. Xususan, skeleti to'liq suyaklashgan, qon aylanishsistemasidan yurak bo'lmalarida to'siq, qorinchasida chala to'siqbo'ladi.

Ikkalasinfdagi qon aylanish dagi o'xshashlik yuragi uchkameralibo'ladi. Sudralib yuruvchilarda umurtqa pog'onasi bo'limlari 4ta: bo'yin,ko'krak-bel, dumg'aza, dum qismlaridan iborat. Bo'yin umurtqalari soni 8ta, boshqa umurtqalari soni ham ortgan, xususan dumumurtqalari soni 16tadan 40 tagacha yetadi. Bu ularni dumi ham yurishda ishtiroketishidandalolat beradi. Umurtqalar tanasining old tomoni botiq, orqatomoni bo'rtibchiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dadayev S. Saparov Q. Umurtqalilar zoologiyasi // Toshkent, "Turoniqbol", 2019
2. Dadayev S. Saparov Q. Zoologiya(Xordalilar) // Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2010
3. Dadayev S. Mavlonov O. Zoologiya// Toshkent "Iqtisod-moliya" 2008.
4. Laxanov J.L. Umurtqalilar zoologiyasi.// Toshkent, 2015. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi II jild Hayvonot olami //Toshkent, "Chinor ENK" 2 t., 2009